

## ABDULLA ORIPOVNING “HAKIM VA AJAL” LIRO-EPIK ASARIDA FOLKLORIZMLARNI O‘RGANISH USULLARI

**Ergashov Islom Ikrom o‘g‘li**

Jizzax davlat pedagogika instituti  
o‘zbek tili va adabiyoti magistranti  
2-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada folklorizmlar va Abdulla Oripov ijod namunalarida folklorizmlarning ishlatilishi haqida yoritilgan. Shoirning ayrim she‘rlaridan parchalar misolida folklorizmlarning ishlatilgan o‘rinlari ko‘rsatib, tushuntirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** folklorizmlar, xalq og‘zaki ijodiyoti, iste‘dod, tasviriy vositalar, badiiy matn, Hakim va Ajal, ABU Ali Ibn Sino, rivoyat, she‘riyat, ifoda uslubi.*

Shoir, tarjimon, publitsist, jamoat arbobi Abdulla Oripov 1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida tug‘ildi. O‘rta maktabni oltin medal bilan tamomlagandan keyin (1958), hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetning jurnalistika fakultetida o‘qidi (1958–1963), “Sharq yulduzi” jurnalida adabiy xodim, “Yosh gvardiya” va G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotlarida muharrir, “Yosh gvardiya” dramatik teatrida badiiy bo‘lim mudiri, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi, katta adabiy maslahatchi, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutida o‘rindoshlik bo‘yicha o‘qituvchi, “Sharq yulduzi” jurnalida muharrir (1963–1982), Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo‘limi mas‘ul kotibi (1982–1983), “Gulxan” jurnali bosh muharriri (1983–1985), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Rayosati raisining o‘rinbosari (1985–1987), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi (1987–1989), O‘zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligi

raisi (1989–2007), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi (1995–2009) vazifalarida ishladi. 2009 yildan boshlab esa O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Faxriy raisi. U 1990 yilda O‘zbekiston Oliy Kengashining, 1995 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati etib saylangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati a‘zosi (2005–2010).

Abdulla Oripov Kaliforniya (AQSH) fan, ta’lim, sanoat va san’at xalqaro akademiyasining a‘zosi hamdir.

**Folklorizm** — yozma adabiyotda qo‘llangan og‘zaki poetik ijod materiali. Ilmiy adabiyotlarda folklorizm “ikkinchi shakl” (K.Chistov) atamasi bilan ham yuritiladi. Yozma adabiyotda muallif yoki personaj nutqida qo‘llangan xalq maqollari, matal hamda iboralar folklorizm sanaladi. Ijodkorning folklorga xos tasvir uslubiga ergashishi, folklor materialidan o‘z asarida foydalanishi, folklorga mansub syujet yoki motivni asariga olib kirishi va boshqa murakkab F. hisoblanadi. Asqad Muxtorning “Chinor”, Turob To‘laning “Suyuk momo” Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni”, Abdulla Oripovning mashhur “Hakim va ajal” liro-epik asarida hamda „Zar va ziyo“ kabi asarlarida folklorizmning yorqin namunalari bor [5].

“Dunyodagi har qaysi xalq va elatning o‘ziga xos og‘zaki ijodiyoti bor. Bu ijodiyot o‘sha xalq yoki millatning bebaho tafakkur xazinasini, milliy his-tuyg‘ularining sarchashmasi, hofiza va xotira manbaidir” [1,23]. Folklor va yozma adabiyot munosabati benihoya keng bo‘lib, bu muammo milliy adabiyotning shakllanish va rivojlanishida xalq og‘zaki ijodining roli, unga xos tasviriy vositalar, badiiy shakllardan foydalanishning muhim tomonlari, folklorizmlarning yuzaga kelishi kabi masalalarni qamrab oladi. Folklor asarlarining Abdulla Oripov ijodiyotiga ko‘rsatgan ta’siri va bu ta’sirning shakllarini yoitish maxsus izlanishni talab qiladigan mavzudir. Shoirning qalamiga mansub bo‘lgan mashhur “Hakim va ajal” liro-epik asarida Abdulla Oripov o‘zining badiiy, ilmiy hamda falsafiy konsepsiyasiga sodiq qoladi, bu asarda buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Ali ibn Sino hayoti va taqdiri misolida olis moziy voqeligidan ezgulik kabi g‘oyalarini, betimsol ma’naviy-axloqiy

go‘zallik namunasini ko‘radi. Yuksak mahorat bilan badiiy-falsafiy yo‘sinda ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi. Asar voqealari lirik qahramon tilidan hikoya qilinadi.

bdulla Oripovning «Hakim va ajal»dostoni syujetiga xalq orasida buyuk tabib Ibn Sino nomiga bag‘ishlab yaratilgan bir necha rivoyat birlashtirib, ularning mazmuni singdirib yuborilgan. Shuning uchun u dostonchilikda sintezlashgan folklorizm ko‘rinishi sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Unda Ibn Sino haqidagi uch rivoyat mazmuni asos qilib olingan. Jumladan, «Ibn Sino va kitoblar» nomli xalq rivoyatida Buxoro shahri xonining betob bo‘lib qolishi va uni Ibn Sinoning davolagani, buning evaziga kattagina kutubxonadan foydalanish huquqiga ega bo‘lgani, kutubxonaning hasadgo‘y tabiblar tomonidan yoqib yuborilishi voqealari hikoya qilinadi. A.Oripov mazkur rivoyatdagi ikkita jihatga e‘tibor qaratgan: Birinchisida Ibn Sino xonni davolashga Buxoroga borishi haqida bo‘lsa .Ikkinchisi Ibn Sino kutubxonasining bahil ,hasadgo‘y kimsalar tomonidan yoqib yuborilishi. Shoir rivoyat materialini badiiy qayta ishlab, uni mazmun jihatdan boyitgan. Dostonda Ibn Sino malikani davolashga keladi. Malika esa uni tabib sifatida saroyda qoldiradi. Ibn Sinoga saroy kutubxonasidan foydalanish huquqi beriladi. Bu malikaga uylanish ilinjida yurgan vazirning o‘g‘li Mirzoga yoqmaydi. Malikaning kun sayin tabibga intilishini ko‘rib, hasadi qo‘zg‘aydi va saroyning boy kutubxonasini yoqib yuboradi. «Zahri qotil» nomli rivoyatda Ibn Sino Eron shohining tund, hech kim bilan gaplashmaydigan, hech narsa yemayotgan qizini davolashi haqidagi voqealar aks etgan. A.Oripov ana shu rivoyatdagi asosiy voqelik – taniqli hakimning injiq tabiatli malika ruhiyatini davolashi motividan ijodiy foydalangan. Ammo dostonda malika Eron shohining emas, Buxoro podshohining qizi sifatida tanishtiriladi. Shunday bo‘lsa-da, dostonda voqealar, asosan, rivoyat syujeti yo‘nalishiga muvofiq tasvirlangan. Unda malikaning hashamlar ichida o‘tirishi-yu, hech kim bilan gaplashmasligi, hech narsaga hushi yo‘qligi aytiladi. Faqat Ibn Sino tashrifidan so‘ng malika ruhiyati va kayfiyatida o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Shoir rivoyatdagi mana shu jihatlarni dostonga olib kirgan. Ko‘rinyaptiki, dostonda aniq bir rivoyat mazmuni ijodiy qayta ishlangan. «Ibn Sino va giyohlar» nomli rivoyatda yonar gul va uning xususiyatlari haqida hikoya

qilinadi. Unda Ibn Sinoning cho‘ponni ilon zahri bilan davolashi, shu tufayli unga boshqa tabiblarning hasad qilishi va hakimni o‘ldirishga chog‘lanishi voqealari haqidagi rivoyat mazmuni doston mazmuni bilan birlashtirilgan. Dostondagi ijodiy qirralardan biri shunda kuzatiladiki, shoir rivoyatda cho‘pon deb berilgan personajni Mirzo ismi bilan nomlagan va shu orqali voqelikka aniqlik kiritishni ko‘zlagan. Shuningdek, yana bu farq personajlar xarakterida ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, rivoyatda cho‘pon oqko‘ngil bo‘lsa, dostonda hasadgo‘y va ichiqora qiyofada namoyon bo‘ladi. Umuman, «xalq rivoyatlari va tarixiy voqealar asosida buyuk hakim va qomusiy alloma obrazini yaratish maqsad qilib qo‘yilgan doston san’at asarlarining markazida turadigan azaliy mavzular – manguлик va o‘limning mohiyati, ezgulik va hasadning azaliy kurashi muammosi badiiy yuksak, quyma satrlarda talqin etilishi» natijasida adabiyotimizda dostonchilikni yanada badiiy takomilga erishtira oldi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Ashurova .G.N. *Abdulla Oripov she’riyatida an’ana va badiiy: Filol. fanlari dok. diss. ... avtoref. — Toshkent, 2008. — 49 b.*
2. Hamdamov U. *Badiiy tafakkur tajriji. Monografiya va maqolalar Toshkent. ‘Yangi asr avlodi’ 2002y*
3. N. Karimov. B. Nazarov. *Adabiyot. 9sinf (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma) T. «Ma’naviyat» 2002 y*
4. Oripov A. *Tanlangan asarlar. 4 jildlik. — Toshkent: Adabiyot va san’at, 2001. 4-jild. — 74 b*
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
6. *10-sinf kitobi*